



IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA MEHNAT SALOHIYATINI SIFAT JIHATDAN OSHIRISH OMILLARI

M.N. Umarova
T.S. Saidmurodova

Toshkent To'qimachilik va yengil sanoati instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Respublikamiz aholisining mehnat salohiyatini sifat jihatdan oshirish omillari tahlil qilindi va aholining mehnatga layoqatli qatlami o'rganildi.*

Kalit so'zlar: *mehnat salohiyati, bandlik, mehnat resurslari, samaradorlik, demografiya, mehnat unumdorligi, iqtisodiy o'sish, kasbiy tayyorgarlik, mehnatga layokatlilik,*

Ingiliz iqtisodchisi J. M. Keyns nazariyasiga ko'ra, rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining mehnatda to'la bandligi tushunchasi ma'lum va meyoriy darajadagi ishsizlikni ham tan oladi. Ammo to'la bandlikni ta'minlashda davlatning tutgan o'rnini alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu nazariya O'zbekistonning o'tish davriga mutlaqo hosidir. Statistika agentligining dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida 2023 yil 1 yanvar holatiga doimiy aholi soni 36 024,9 ming kishini tashkil etgan. Shundan 21 milliondan ortiq qismi mehnatga layoqatli hisoblanadi.

Respublikamiz iqtisodiy va mehnat salohiyatining butkul yangi va o'zgaruvchan tarkibini bunyod qilishi va mustaxkam negizini tayyorlash zarur. Bu vazifani hal qilish, mehnat salohiyatida sifat o'zgarishlarini amalga oshirish, mehnat bozorini tartibga solish bo'yicha jiddiy chora tadbirlarni ishlab chiqarish va amalga oshirishni talab qiladi. Aholini mehnatda to'la bandligini ta'minlash va tartibga solish, haqiqiy va yashirin ishsizlik miqdorini kamaytirish, ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifni muvozanatga keltirish, ishchi kuchi va sifatini oshirishga va uning unumli mehnat qilishiga erishish hozirgi davrning dolzarb vazifalari hisoblanada va o'z yechimlarini kutib turibdi.

Masalaning muhimligi shundaki, uni hal etish aholi bandligini tartibga solishning samarali tizimini va rotsional usullarini topish hamda belgilash, mehnat zaxiralarini takror ishlab chikarishda mehnat bozorini tez o'zgaruvchan bozor holatiga keltirib takomillashtirish va bugungi aralash iqtisodiyot sharoitida shakllantirish, ishchi kuchi bandligini ta'minlash, taqsimlash, tayyorlash, qayta tayyorlash imkonini beradi.

Iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida avvalo iqtisodiyotning tarkibiy tizimini tubdan o'zgarishi, jumladan, hozirgi zamon texnikasi texnologiyasining kirib kelishi, shuningdek milliy iqtisodiyotning shakllanishi, mehnat salohiyatining yangilanishi, uni sifat jihatlarini kuchayishini obektiv tarzda taqazo etadi [1].



Iqtisodiyotimizni barqarorlashtirib, iqtisodiy o'sishga erishmoqchi bo'lsak, faqatgina texnika va boshqaruvni yangilash bilan bunga erishib bo'lmasligini ta'kidlashimiz lozim. Shuning uchun hamma narsani yaratilishining zamini bo'lgan mehnatni, uning obektini, subetini yangilash kerak. Albatta bu yangilanish sifat jihatdan takomillashtirish bilan bog'liq bo'lishi kerak. Mehnatga layoqatli kishilarning umumiy ta'lim va kasbiy tayyorgarligi, fan sohasidagi bilim darajasi, sixat salomatlik, turmush darajasi, mehnat salohiyatini sifat jihatlarini ifodalaydi.

Mehnatga layokatlilik ishchi kuchining imkoniy unumdorligidan iborat, uning sifatiga, ya'ni xodimning malakasi, kasb - koriga bog'liq bo'lib, u mehnat unumdorligida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi aholining mehnatda bandligining muhim muammolaridan biri bu mehnat salohiyatini miqdor va sifat jihatidan mutanosibligini ta'minlashdir.

Tatqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, Respublikada ko'p yillar davomida mehnat salohiyatini faqat miqdor ko'rsatkichlarigagina e'tibor berib kelingan. Vaholanki mehnat salohiyatining sifat ko'rsatkichlari nafaqat xar bir kishi uchun balki butun jamiyat uchun birinchi darajalik ahamiyatga egadir.

Aholi va mehnat rusurslarining muxim sifat jihatlari, jamiyatning ijtimoiy rivojlanish darajasini, ularning ta'limi va kasbiy malaka darajasini ifodalaydi. U ijtimoiy ishlab chikarish samaradorligini oshiruvchi va uning qatnashuvchisi bo'lgan insonni har tomonlama rivojlantirishning muhim omili sifatida maydonga chiqadi. Aholini sotsial - demografik tomonidan o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, ularni ishlab chikarishga to'lik jalb etish, mehnat unumdorligi va haq to'lashning barchasi, bilim, kasb - korlik, malaka darajasiga bog'liq bo'ladi. Biroq hisob-kitoblarning ko'rsatishicha, ba'zi tarmoqlarda tashkil etilgan yangi ish joylari va kadrlar tayyorgarligi, bilimi o'rtasida nomutanosiblik mavjud ekanligi sezilib qolmoqda[1].

Yildan yilga kadrlarning kasbiy xarakatchanligini o'sishiga ehtiyoj ortib bormoqda, chunki bozor, rejali xo'jalikka nisbatan egiluvchan va dinamik tizim bo'lib, bunda ishlab chikarish ichki va jahon bozorlaridagi talab o'zgarishlariga tez moslashishni talab etadi va aynan xar bir ishda qayta tayyorgarlikdan tez o'ta oladigan, ikkinchi kasblarni egallab, boshqa vazifalarni bajaradigan, yangi ishlab chikarishni tez o'zlashtiradigan, malakali kadrlar kerak bo'ladi.

Mamlakatning texnika-texnologiya fan taraqqiyotiga monand tushishi shart, ammo buning uchun fan yutuqlarini amaliyotga joriy etishni ta'minlovchi iqtisodiy vositalar va mehanizmlarni ishga solish talab etiladi. Agar bunday vosita bo'lmasa, fan va texnika bir-birini t'minlamay qo'yadi. Muayyan mamlakatning mehnat salohiyatini sifat ko'rsatkichilaridan yana biri bu mehnat unumdorligi darajasiga bog'liqligidir. Respublikamizda o'zoq yillar davomida amalga oshirilgan noto'g'ri siyosat natijasida juda ko'p mintaqalarda bir tamonlama rivojlanish amalga oshirildi[2].

Hozirda O'zbekistonda kadrlarni kasbiy tayyorgarligini oshirish ularni sifat jihatdan takomillashtirish dolzarb muammo bo'lib qolmasligi kerak, bu muammoni yechimiga xar bitta shaxs javob topishi lozim deb hisoblaymiz.





Xulosa: Ish bilan band bo'lgan aholini tarkibiy jihatdan, hamda mehnatga layoqatli yoshlarni faolyatning yangi ilg'or sohalariga jalb qilish ham mehnat salohiyatidan samarali foydalanishning qudratli zaxirasidir.

Respublikamiz aholisini mehnat salohiyatini sifat jihatdan oshirishda, eng avvalo kadrlarni malaka darajasini oshirishimiz, zamonaviy texnika-texnologiyalarni joriy etishimiz, halqimizning tarixiy an'analari, udumlariga mos keladigan sohalarni va tarmoqlarni ustivor rivojlantirishimiz va albatta yuqori mehnat unumdorligi darajasiga erishishimiz, bugungi kun yoshlarining ustivor vazifalaridan biri deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Nazarova G.G. va boshqalar Inson resurslari menejmenti, o'quv qo'llanma, TDIU-2010 yil
2. Azlarova M.M. Inson resurslarini boshqarish: o'quv qo'llanma. – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: IQTISODIYOT, 2019. -207 bet.